

Lecture 10. The methods of supporting innovation process in production.

10- ma'ruza. Ishlab chiqarishda innovatsion faoliyatni ta'minlash usullari.

Innovatsion menejmentning maqsadlari, xarakteri va mazmuni innovatsion menejmentning xususiyatlari uning an'anaviy turlardan katta farq qilinishini belgilab beradi. Iyerarxiyaning har xil darajasidagi (davlat darajasidan boshlab to kichik innovatsion loyihagacha) har qanday innovatsion tizimlarni innovatsion rivojlanishining maqsadi – uzoq muddatli iqtisodiy o'sish va yuqori tartibdagi raqobat afzalliklarini ta'minlash uchun innovatsion bazani yaratishdan iboratdir.

Yapon menejmenti innovatsion faoliyatni 2 turga ajratadi:

1. Kayri – yangi mahsulot yaratish, katta va sezilarli texnologik o'zgarishlar, katta harajatlar bilan bog'liq qayta jihozlash;
2. Kayzen – texnologik jarayonlar va mahsulotga uzluksiz mayda o'zgarishlar kiritib borish.

Korxonada faoliyatida ushbu ikkala yondashuv muvozanati saqlangan holda ishlatilishi kerak. Innovatsion jarayonlarni boshqarish korxonada boshqaruvchisiga quyidagi talablarni qo'yadi.

1. Korxonaning istiqboli va hozirgi kun muammolarini yaxshi bilish;
2. Korxonada ishlab chiqarish sohasining mutaxassisi bo'lish va chuqur, mustahkam bilimlarga ega bo'lish; ma'lum ijodkorlik qobiliyatlariga ega bo'lish;
3. Ma'lum ijodkorlik qobiliyatlariga ega bo'lish;
4. Istiqbolli yangilikni ajrata olish va rivojlanishga ayrim yo'nalishlarni tanlab olishga ma'suliyatni sezish;
5. o'zgarishlarga doim o'zi tayyor bo'lishi va ijodkorlik muhitini yaratish.

Korxonalar innovatsion loyihalarni amalga oshirishda quyidagi 2 asosiy yo'nalish bo'yicha harakatlanishi mumkin:

1. korxonada o'zi, mustaqil ravishda dastlabki innovatsion texnik sharoitlarni o'rganib chiqadi va ishlab chiqarishga tayyorladi. Bunday yondashuv doimiy o'sib boruvchi moliyaviy harajatlar bilan bog'liq va bu katta tavakkalchilikni talab etadi. Yuqori texnologik va murakkab texnik mahsulotlar ishlab chiqarishda juda ehtiyotkorlikni talab etadi. Faqat yuqori malakali mutaxassislar va kerak bo'lgan texnologik uskunalarda hamda texnik hujjatlar borligida, milliy yoki xalqaro patentlarga ega bo'lish bunday harakatlarning asosi bo'lishi mumkin.

2. Boshqa korxonalar bilan kooperatsiya strategiyasi asosida hamkorlik aloqalarini o'rnatish va buning asosida innovatsion faoliyatni rivojlantirish. Bu holatda kooperatsiya innovatsion jarayonning har bir bosqichida olib borilishi mumkin (faqat, mualliflik huquqi haqidagi qonunchilikka aniq va ravshan holda muvofiq ish tutishi kerak).

Katta harajatlarni talab etuvchi innovatsiyalar jarayonida korxonalar o'z raqobatbardoshligini oshirish va tavakkalchilikni kamaytirish maqsadida innovatsion kooperatsiyani keng qo'llash maqsadga muvofiqdir. Bunday hamkorlik shakllari strategic alyans (bir maqsadda birlashuv), birlashtirilgan izlanishlar, tadqiqot va tajriba ishlari, birlashtirilgan ishlab chiqarish yoki birlashtirilgan marketing izlanish shaklida bo'lishi mumkin.

Hozirda aksariyat korxonalar uchun mavjud ma'lum texnik va texnologik qoloqlik tufayli fan va texnika yutuqlaridan samarali foydalanish, innovatsion rivijlanish yo'ligga chiqish korxonalarimiz uchun hayotiy muhimdir. Shu sababli korxonalarimiz, ayniqsa sanoat korxonalari, o'z raqobatbardoshligini ta'minlashi uchun mstaqil ravishda uzoq muddatli maqsadlarni o'z oldiga qo'yishi va rivojlanishning innovatsion omillarini inobatga olgan holda, o'z rivojlanish strategiyasini yaratishi, shakllantirishi va joriy etishi lozim.

Innovatsion faoliyatni inobatga olgan korxonalar rivojlanish strategiyasi o'z tarkibiga quyidagilarni mujassamlamaog'i lozim:

- Innovatsion faoliyat rejalari va dasturlarini yaratib boorish;
- Mahsulotning yangi turlarini yaratish loyihalarini o'rganish;
- Yagona innovatsion faoliyat olib borish;
- Innovatsion dasturlarni moliyaviy, moddiy va boshqa turdagi resurslar bilan ta'minlash;
- Innovatsion faoliyat boshqaruvini shakllantirish va takomillashtirish;
- Innovatsion faoliyatga yuqori malakali xodimlarni jalb etish;
- Innovatsion faoliyatni yuqori rahbariyat tomonidan to'g'rida-to'g'ri boshqaruvi va e'tibori.

Albatta, innovatsion faoliyat korxonaning barcha darajalarida har xil samaradorlik bilan olib boriladi, ya'ni o'zgarishlar samaradorligidan ancha farq qilishi mumkin.

1-jadval. Korxonada innovatsion faoliyat turlari

Faoliyat turi	Darajasi	Yagilash negizi	Samaradorligi	Muddati
Strategik yangilash faoliyati	Kompaniya, davlat boshqaruv organlari	Yangi mahsulot, yangi ishlab chiqarish jihozlari	50% dan ortiq	Uzoq muddatli 3 oydan ortiq
Ishlab chiqarishni yaxshilash	Zavod rahbariyati	Jarayonlar, jihozlar, resurslar oqimi	20-40%	O'rta muddatli 2 haftadan ortiq
Yaxshilash bo'yicha kundalik faoliyat	Bo'lim, sexlar	Jarayonlar, jihozlar	5-20%	Qisqa muddatli 2-5 kun

Qabul qilinayotgan innovatsion boshqaruv qarorlari va faoliyat turlari o'z mazmuni bo'yicha menejerning pog'ona darajasiga bog'liqdir.

2-jadval. Innovatsion boshqaruv qarorlari turlari

Korxonada boshqaruvi darajasi	Boshqaruv qarorlari va faoliyat turlari		
	Strategik	Operativ	Topshiriqlar
Yuqori: kompaniya rahbari, uning o'rinbosarlari	+	+	-
O'rta: bo'lim va bo'linmalar rahbarlari	-	+	+
Past: ishlab chiqarish uchastkalari, ijodkor guruhlar rahbarlari	-	-	+

Kompaniya darajasida. Bozor ehtiyojlarini baholash, yangi mahsulotni yaratish strategik masalalari, resurslarni ajratish, ishlarning ustuvorliginin belgilash kompaniyaning yuqori rahbariyati tomonidan hal etilishi kerak.

Bu darajada qabul qilinadigan qarorlar ta'sirida korxonaning tovar-mahsulot siyosatida tubdan burilish yaratadi, kompaniyaning mo'ljallari va imidji o'zgarishi mumkin. Kompaniya darajasida qabul qilinadigan innovatsion qarorlar eng murakkab va ma'suliyatli, eng katta xavf-xatarlar bilan bo'g'liq bo'lib, ular . radikal o'zgarish bo'lishi va umuman , biznes sohasini o'zgartirishga olib borishi mumkin. Ularning samaradorligi ham eng yuqoridir (50% va undan ortiq).

Zavod (korxonada) darajasida innovatsion faoliyat - bu ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarini takomillashtirishdir. Korxonada (zavod) darajasida ham

Tovar-mahsulot ko'rsatkichlari yaxshilanishi mumkin, ammo asosiy e'tibor ishlab chiqarish texnologiyalari, jihozlar va uskunalarni muntazam yaxshilab borishi, resurslar oqimini optimallashtirishga qaratiladi.

Bu darajada qabul qilinayotgan innovatsion qarorlarda kompaniya samaradorligi 20-40%ni tashkil etadi. Mahsulot va ishlab chiqarish jarayonlarini o'zgartirish son jihatdan ko'p bo'lishi mumkin.

Sex va bo'lim darjasida innovatsion faoliyat eng ommaviydir. Sifat to'garaklari va ratsionalizatorlik usullarida olib boriladigan innovatsion faoliyat eng tez natija ko'rsatadi, korxonada umumiy samaradorligiga katta ta'sir o'tkazishi mumkin. Masalan, yapon iqtisodiy mo'jizasi asosida ham "kayzen" – ommaviy ijodkorlik va mayda, katta hajat talab qilmaydigan yaxshilash faoliyatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.A.Abdullayev, A.E.Teshabaev va b. "Innovatsion menejment" o'quv qo'llanma. "Iqtisod-moliya" nashriyoti . 2015
2. и.ф.д., проф. Р.Р.Хасанов. Инновацион таракқиётнинг мазмуни, инновация турлари ва инновацион жараёнлар қонуниятлари. Презентации.
3. S.G'ulomov, G'.Qosimov va b. "Strategik va innovatsion menejment" darslik. Toshkent – 2013.
4. Nazarova F.X. , Ziyayeva Sh.Sh. "Innovatsion menejment". O'quv-uslubiy majmua. Toshkent - 2018